


IV
2023

ELECTRONIC EDUCATION

**SCIENTIFIC
JOURNAL**



TAHRIRIYAT

Bosh muharrir

Ro‘ziyev Raup Axmadovich
fizika-matematika fanlari nomzodi,
dotsent

Bosh muharrir o‘rinbosari

Mirsanov Uralboy Muxammadiyevich
pedagogika fanlari doktori DSc, dotsent

Editor-in-Chief

Ruziyev Raup Akhmadovich
Candidate of Physical and Mathematical Sciences,
Associate Professor

Deputy Editor-in-Chief

Mirsanov Uralboy Muxammadiyevich
doctor of Pedagogical Sciences DSc, Associate
Professor

TAHRIRIYAT A‘ZOLARI

Sobirov Baxodir Boypulatovich – NavDPI rektori,
texnika fanlari doktori, professor (O‘zbekiston)

Laqayev Saidaxmad Norjigitovich – akademik
(O‘zbekiston)

Djurayev Risbay Xaydarovich – akademik
(O‘zbekiston)

Shokin Yuriy Ivanovich – akademik (Rossiya)

Negmatov Sayibjon Sodiqovich – akademik
(O‘zbekiston)

Aripov Mersaid Mirsiddikovich – fizika-matematika
fanlari doktori, professor (O‘zbekiston)

Turabjanov Sadritdin Maxamatdinovich – texnika
fanlari doktori, professor (O‘zbekiston)

Raximov Isomiddin Sattarovich – fizika-matematika
fanlari doktori, professor (Malayziya)

Shariy Sergey Petrovich – fizika-matematika fanlari
doktori, professor (Rossiya).

Qurbonov Shavkat Ergashovich – pedagogika
fanlari doktori, professor (O‘zbekiston).

Ajimuxammedov Iskandar Maratovich – texnika
fanlari doktori, professor (Rossiya).

Ibraimov Xolboy – pedagogika fanlari doktori,
professor (O‘zbekiston)

Yunusova Dilfuza Isroilovna – pedagogika fanlari
doktori, professor (O‘zbekiston)

Aloyev Raxmatillo Djurayevich – fizika-matematika
fanlari doktori, professor (O‘zbekiston)

Abdullayeva Shaxzoda Abdullayevna – pedagogika
fanlari doktori, professor (O‘zbekiston)

Mo‘minov Bahodir Boltayevich – texnika fanlari
doktori, professor (O‘zbekiston)

Maxmudova Dilfuza Mileevna – pedagogika
fanlari doktori, professor (O‘zbekiston)

Xudjayev Muxiddin Kushshayevich – texnika
fanlari doktori, dotsent (O‘zbekiston).

Xolmurodov Abdulhamid Erkinovich – fizika-
matematika fanlari doktori, dotsent (O‘zbekiston).

Lutfillayev Maxmud Xasanovich – pedagogika fanlari
doktori, dotsent (O‘zbekiston).

Ergasheva Gulruksor Surxonidinovna – pedagogika
fanlari doktori (DSc), dotsent (O‘zbekiston).

Norov Abdusait Muradovich – texnika fanlari
bo‘yicha falsafa doktori, dotsent (O‘zbekiston).

Yuldoshev Ismoil Abriyevich – pedagogika fanlari
bo‘yicha falsafa doktori, dotsent (O‘zbekiston).

Karaxonova Oysara Yuldoshevna – pedagogika fanlari
bo‘yicha falsafa doktori, (O‘zbekiston).

Kurbaniyazova Zamira Kalbaevna – pedagogika
fanlari doktori, (O‘zbekiston).

Nasirova Shaira Narmuradovna – texnika fanlari
doktori, professor (O‘zbekiston).

Nasridinov Ilxam Burxanidinovich – texnika fanlari
nomzodi, dotsent (O‘zbekiston).

Xujjiyev Sodiq Oltiyevich – biologiya fanlari nomzodi,
dotsent (O‘zbekiston).

Suvonov Olim Omonovich – texnika fanlari nomzodi,
dotsent (O‘zbekiston).

O‘tapov Toyir Usmonovich – pedagogika fanlari
nomzodi, dotsent (O‘zbekiston).

Ibragimov Alimjon Artikbayevich – fizika-matematika
fanlari nomzodi, dotsent (O‘zbekiston).

Yodgorov G‘ayrat Ro‘ziyevich – fizika-matematika
fanlari nomzodi, dotsent (O‘zbekiston).

Xudoyorov Shuxrat Jumaqulovich – fizika-
matematika fanlari nomzodi, dotsent (O‘zbekiston)

Baxodirova Umida Baxodirovna – pedagogika fanlari
bo‘yicha falsafa doktori (O‘zbekiston).

Shodiyev Ibrohim Majidovich – filologiya fanlari
bo‘yicha PhD, dotsent (O‘zbekiston)

Toxirov Feruz Jamoliddinovich – pedagogika fanlari
bo‘yicha falsafa doktori (O‘zbekiston).

Xamroyeva Dilafro‘z Namozovna – fizika-matematika
fanlari bo‘yicha falsafa doktori (O‘zbekiston).

Jo‘rakulov Tolib Toxirovich – texnik muharrir

MUNDARIJA

Ergasheva G. S., Toshmanov N. J. <i>BIOLOGIYA MASHG‘ULOTLARIDA VIRTUAL LABORATORIYA DASTURLARIDAN FOYDALANISH METODIKASI</i>	5
Ro‘ziyev R. A. <i>BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARINING RAQAMLI KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHDA VIRTUAL ELEKTRON AXBOROT-TA‘LIM MUHITINING O‘RNI</i>	16
Sharifjanova G., Xasanov Sh. R. <i>RAQAMLI IQTISODIYOTDA AXBOROT XAVFSIZLIGINI O‘QITISHNING XUSUSIYATLARI</i>	26
Норов А. М., Сафаров Л. С., Муродов Ш. А. <i>О СПОСОБАХ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ВОЗМОЖНОСТЕЙ CHATGPT В ОБУЧЕНИИ ПРОГРАММИРОВАНИЮ</i>	37
Xamroyeva D. N. <i>TARQATMA MATERIALLAR SHAKLIDAGI ELEKTRON O‘QUV KONTENTLARINI TARSIA DASTURIDAN FOYDALANIB YARATISH TEXNOLOGIYASI</i>	48
Qayumova D. N. <i>INKLYUZIV TA‘LIM MUHITIDA BO‘LAJAK TARBIYACHILARNI KASBIY FAOLIYATGA TAYYORLASHNING STRATEGIK YO‘NALISHLARI</i>	63
Ruziyeva D. R. <i>DASTURLASH TILLARINI O‘QITISHNING INNOVATSION SHAKLLARI VA USULLARINI JORIY ETISH IMKONIYATLARI</i>	76
Yuldoshev I. A., Mirzayev S. S. <i>TARMOQ TEXNOLOGIYALARIDA BILAN AXBOROT ALMASHINUVNI TASHKIL ETISH MASALALARI</i>	84
Juraboyev A. J. <i>KOMPYUTER QURILMALARINI O‘RGATISHGA MO‘LJALLANGAN VIZUAL KO‘RGAZMALI QUROLLAR YARATISH USULLARI</i>	94
Ro‘ziyev R. A., Yandashova N. Y. <i>VIRTUAL TA‘LIM TEXNOLOGIYALARINI YARATISHGA MO‘LJALLANGAN TA‘LIM PLATFORMALARINING IMKONIYATLARI</i>	101
Jumayeva D. N. <i>XORIJIIY DAVLATLARNING KASB - HUNAR MAKTABLARIDA MUSTAQIL TA‘LIMNING HOLATI</i>	109

Mirsanov J. M. UMUMIY O‘RTA TA‘LIM MAKTAB O‘QUVCHILARINING DASTURLASHGA OID ALGORITMIK FIKRLASHINI RIVOJLANTIRISHDA SEMANTIK YONDASHUVDAN FOYDALANISH	118
Husanova S. H. OLIY TA‘LIM MUASSASALARI TALABALARIGA DASTURLASH TILLARINI O‘RGATISHDA HISOBLASH TAFAKKURI (COMPUTATIONAL THINKING)DAN FOYDALANISH KO‘NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH	127
Xodjabayev F. D. DASTURLASH TILLARI FANIDAN ONLAYN VIKTORINALAR O‘TKAZISH USULLARI	137
Shodiyeva G. R. TALABALARNING TABIIY GEOGRAFIYAGA OID KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHDA VEB-KVEST TEXNOLOGIYASINING AMALIY SAMARADORLIGI	145
Ergasheva F. T. BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH SINFI O‘QITUVCHILARINING RAQAMLI KOMPETENTLIGINI SHAKLLANTIRISHDA “DISKUSSIYA” INTERFAOL METODINI QO‘LLASH	155

© Mazkur jurnal O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy Attestatsiya komissiyasi rayosatining 2022-yil 28-fevraldagi 312/6 qaroriga asosan Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiya ishlari yuzasidan dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan

INKLYUZIV TA’LIM MUHITIDA BO’LAJAK TARBIYACHILARNI KASBIY FAOLIYATGA TAYYORLASHNING STRATEGIK YO’NALISHLARI

Qayumova Dilsora Nurali qizi

*Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti v.b. dotsenti, p.f.f.d.
(PhD), O‘zbekiston*

Annotatsiya: *Maqolada imkoniyati cheklangan yoshlarni o‘qitish, ijtimoiylashtirish va o‘z-o‘zini amalga oshirishga ko‘maklashish maqsadida bolajak tarbiyachilarni kasbiy faoliyatga tayyorlash modellari, yondashuvlari, tayanch konseptlari, strategic yo‘nalishlari asoslab berilgan. Shuningdek, bolajak tarbiyachilarni kasbiy faoliyatga tayyorlash modeli taqdim etilgan.*

Tayanch so‘zlar: *inklyuziv, inklyuziv ta’lim, maktabgacha ta’lim, bo’lajak tarbiychi, model, kontsept, yondashuv, kompetentlik, axborot ta’lim muhiti, electron ta’lim muhitlari.*

Аннотация: *В статье обоснованы модели, подходы, основные концепции и стратегические направления подготовки дошкольных педагогов к профессиональной деятельности в целях поддержки образования, социализации и самореализации молодых людей с ограниченными возможностями здоровья. Также представлена модель подготовки дошкольных воспитателей к профессиональной деятельности.*

Ключевые слова: *инклюзивное, инклюзивное образование, дошкольное образование, будущий педагог, модель, концепция, подход, компетентность, информационная образовательная среда, электронные образовательные среды.*

Abstract: *The use of virtual laboratories in the modern education system is substantiated. The article substantiates models, approaches, basic concepts and strategic directions for preparing preschool teachers for professional activities in order to support the education, socialization and self-realization of young people with disabilities. A model for preparing preschool teachers for professional activities is also presented.*

Key words: *inclusive, inclusive education, preschool education, future teacher, model, concept, approach, competence, information educational environment, electronic educational environments.*

Kirish. Zamonaviy globallashtirilgan axborot jamiyati insonning insonparvarlashtirish faoliyatini barcha sohalari, shu jumladan ta’lim tizimi olidga ham o’ziga xos talablar qo’ymoqda. Ta’lim paradigmasining ustuvor qadriyatli yo’nalishlaridan biri insonning asosiy huquq va erkinliklarini amalga oshirish, ijtimoiy xavfsizlikni ta’minlash va o’zini-o’zini anglash masalalari hisoblanadi. Unda yana alohida e’tibor talab qiladigan eng muhim masalalardan biri imkoniyati cheklangan yoshlarni o’qitish, ijtimoiylashtirish va o’z-o’zini amalga oshirishga ko’maklashishdir. 20-asrning 50-60-yillardan boshlab kasbiy ta’limni inklyuziv paradigma va kompetensiyaviy yondashuv asosida modernizatsiyalash, takomillashtirish bo’yicha turli bahs va munozaralar davom etmoqda. Bu murakkab jarayonda, inklyuziv ta’lim muhitida uzluksiz ta’limning barcha bo’g’inlarida inklyuziv ta’lim uzluksizligi va uzviyligini ta’minlash, jumladan, maktabgacha ta’lim tashkilotlarida faoliyat ko’rsatishga bo’lajak tarbiyachilari kasbiy tayyorlash muammosi alohida o’rin tutadi.

Amerika va Yevropa mamlakatlarida inklyuziv ta’lim uzoqroq tarixga ega va ta’lim amaliyotida maxsus ta’limga muhtoj bolalarning ta’limiy ehtiyojlarini qondirish maqsadida joriy etib kelinadi. Inklyuziv ta’lim me’yoriy-huquqiy, ijtimoiy va iqtisodiy darajada tartibga solish, ijtimoiy va iqtisodiy jihatdan yaxshilashni taqozo etadi. Biroq, inklyuziv ta’limni muvaffaqiyatli amalga oshirish birinchi navbatda, bo’lajak tarbiyachilarning inklyuziv ta’lim amaliyotiga tayyorlash va inklyuziv kompetentligini rivojlantirishga bog’liq [1].

Adabiyotlar tahlili. “Inklyuziya” tushunchasi bu barcha bolalar uchun inklyuziv yondashuv doirasida ma’lum imkoniyatlar eshigini ochish, o’ziga xos ehtiyojlari muvofiq maktabgacha ta’lim muassasalarida maxsus sharoitlar yaratish va bir xil ta’lim berish [2].

Bo‘lajak tarbiyachilarni kasbiy faoliyatga tayyorlashda inklyuziv kompetentligini rivojlantirish modelini obyektiv hamda sifatli ishlab chiqish uchun biz chet elda ishlab chiqilgan *konsepsiyalari va modellarini* o‘rgandik.

Tadqiqotchilarning ilmiy izlanishlarini diqqat bilan o‘rganib chiqish jarayonida bo‘lajak tarbiyachilarni inklyuziv ta’lim muhitlarida faoliyat yuritishga tayyorlash muammosini hal qilish borasida shakllangan 3ta barqaror yo‘nalishlarni ajratib oldik (1-rasm).



1-rasm. Inklyuziv ta’lim muhitida bo‘lajak tarbiyachilarni faoliyat yuritishga tayyorlash yo‘nalishlari

Birinchi yo‘nalish *kompetentli-yo‘naltirilgan tarzda tayyorlash*. Kompetentli-yo‘naltirilgan model D.N. Korneev, N.Yu. Korneeva [3], O.S. Kuzmina [4], S.N. Maslieva [5], M.I. Nikitina [6] kabi olimlar tomonidan ishlab chiqilgan.

Ikkinchi yo‘nalish *maxsus-yo‘naltirilgan tarzda tayyorlash*. Ushbu yo‘nalish doirasida Ye.I. Andrianova, A.Ye. Ignatev [7], T.V. Kuzmichyeva [8], S.A. Cherkasovalar [9] tomonidan pedagog-psixologlar, pedagog-defektologlar hamda jismoniy madaniyat o‘qituvchilarini tayyorlash to‘g‘risidagi izlanishlar olib borilgan.

Uchinchi yo‘nalish *kompleksli-yo‘naltirilgan tarzda tayyorlashga* oid ilmiy tadqiqotlar doirasida pedagogni inklyuziv ta’lim muhitlarida faoliyat yuritishga yaxlit (kompleksli, tizimli) tayyorlash muammosini hal qilishga qaratilgan ishlar taqdim etilgan (I.V.Voznyak [10], A.D.Goneev [11], Ye.G.Samarseva [12], T.V.Timoxina[13], V.V.Xitryuk[14] va boshqalar).

Shunday qilib, inklyuziya ta’lim muhitlarida bo’lajak tarbiyachilarni kompleksli tayyorlashga qaratilgan turli konsepsiyalar va modellarining tahlili asosida yangicha qiyofaga ega bo’lgan tarbiyachida ta’lim tizimining talablariga javob beruvchi kasbiy inklyuziv ta’limning universal strategiyalari mavjudligini ko’rsatadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Ilmiy izlanishlarimizdan kelib chiqib, modellar va konsepsiyalarning tahliliy sharhi asosida bir necha strategik yo’nalishlarini ta’kidlash mumkin [15].

1. Hozirgi vaqtda inklyuziv ta’lim tizimi talablariga javob bera oladigan bo’lajak tarbiyachi (pedagoglar)ni tayyorlash muammosiga bo’lgan qiziqish kun sayin ortib bormoqda. Bu fikrni so’ngi 5 yil ichida olib borilayotgan ilmiy izlanishlarning jaddalashganligi tasdiqlashi mumkin. Bunday tendensiya nafaqat Rossiya ilmiy-ta’lim muhitiga tegishli, balki MDH mamlakatlari, jumladan, Belorussiya, Ukraina, Qozog’iston, O’zbekiston va boshqa davlatlar uchun ham xarakterlidir.


2. Ishini shakllantirishning universal mexanizmlarini qidirib topishga qaratilganlik xosdir.

3. Taqdim etilgan modellarning aksariyat qismi inklyuziv ta’lim muhitlarida bo’lajak tarbiyachilarni ishlashga tayyorlashga yo’naltirilganligi sababli hozirda faoliyat ko’rsatayotgan va inklyuziya muhitida ishlash uchun talab etiladigan kompetensiyalarning yetarlicha shakllanmaganligi hamda sifatli inklyuziv ta’lim jarayonini tashkil qilish zarurati bilan bog’liq bo’lgan jiddiy muammolarga duch kelayotgan fan o’qituvchilarining muammolari guruhi e’tibordan chetda qoldirilgan.

Inklyuziv ta’lim muhitlarida loyihalashtirishga tayanch tashkiliy jarayon sifatida qaragan holda biz metodik, qadriyatli-maqсадli, mazmundor-faoliyatli va reflektiv-baholovchi komponentlar orqali taqdim etilgan bo’lajak tarbiyachilarni inklyuziv ta’lim muhitida kasbiy tayyorlash modelini ishlab chiqdik (2-rasm).

Ishlab chiqilgan model komponentlarini (tarkib) batafsil tavsiflab chiqamiz. *Metodik komponent* negizida pedagogni tayyorlash jarayoni shakllantiriladigan va

amalga oshiriladigan asosiy yondashuvlar orqali taqdim etilgan. Modelni ishlab chiqishda tayanch yondashuvlar sifatida qabul qilingan aksiologik, madaniy, kompetentli, shaxsiy-faoliyatli va hodisali yondashuvlarning mazmun-mohiyatini to‘liq yoritgan edik. Modelning boshqa komponentlariga nisbatan metodologik komponent umumiy holatda modelni ishlab chiqish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi va shartli ravishda biz tomonimizdan mazkur model tarkibida konstanta sifatida ko‘rib chiqiladi.



2-rasm. Inklyuziv ta’lim muhitida bo’lajak tarbiyachilarni kasbiy faoliyatga tayyorlash modeli.

Tadqiqotda model maqsad, pedagogik jarayon va natijani ochib berishga xizmat qiladi. Tahlillar asosida “inklyuziv ta’lim” tushunchasiga quyidagi tarzda mualliflik ta’rifi berildi: Inklyuziv ta’lim muhiti – bu tarbiyalanuvchilarning maxsus ta’lim ehtiyojlari va individual imkoniyatlari talablariga javob bera oladigan vositalar orqali ta’lim jarayoni subyektlarini samarali shaxslararo munosabatlarga jalb etuvchi ochiqlik, variativlik, mobillik, moslashuvchanlik kabi xususiyatlarga ega bo’lgan inklyuziv ta’lim tamoyillari joriy etilgan ta’lim muassasasi muhiti hisoblanadi. Modelda inklyuziv ta’lim muhitida bo’lajak tarbiyachilarni kasbiy faoliyatini samarali tashkil etish pedagogik shart-sharoitlar bilan o‘zaro bog’liqligi ko‘rsatilgan.

Qadriyatli-maqsadli shaxsdagi yashirin salohiyatni yuzaga chiqarish va undan foydalanishga yo‘naltirilganligining muvaffaqiyatini belgilab beradi hamda umumiy maqsadni ta’riflashga yordam beradi: inklyuziv ta’lim muhitlarida bola bilan ishlash jarayonida uning yashirin zahiradaga imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarish va undan foydalanishga qodir bo’lgan pedagogni tayyorlash.

Mazmundor-faoliyatli komponent. Mazkur komponentning tavsifi pedagogika oliy ta’lim muassasalari muhiti rezervlaridan foydalangan holda amalga oshirilishi mumkin bo’lgan imkoniyatlarga bog’liq [16].

Ta’lim jarayoni elementlari sifatida biz loyihaviy faoliyat moduli, akademik safarbarlik moduli va akademik safarbarlik haftaligini belgiladik.

Bu borada davlat siyosati inklyuziyaga nafaqat ta’lim tizimi, balki, umuman olganda, mamlakat rivojlanishining ustuvor strategiyasi sifatida qarashga yo‘naltirilganligini ta’kidlash lozim. Aynan shu sababdan aksariyat ta’lim muassasalari tomonidan “inklyuziv” maqomiga ega bo’lishlari vaqti masalasidir, inklyuziv pedagogni tayyorlash esa ta’lim amaliyoti darajasidagi ob’ektiv zaruratga aylanib bormoqda.

Bizning modelimizda ta’lim jarayoni subyektlari faoliyati mazmuni ularning ijtimoiy maqomlari va o‘rinlarning xilma-xilligi bilan belgilangan. O‘quvchining ijtimoiy roli ko‘p qirralidir, ayniqsa, talabalik tayyorgarlik dasturini amalga oshirish to‘g‘risida gap ketganda. Shunday qilib, bizning modelimizdagi ta’lim jarayoni

subyektlari faoliyatining mazmuni real vaqt mobaynida ular uchun hal qiluvchi bo‘lgan ijtimoiy rollar jihatlariga yo‘naltirilgan bo‘ladi. Bizning maktabgacha ta’lim yo‘nalishi talabasilarning loyihaviy faoliyatini shakllantirish hamda ularni inklyuziv ta’lim muhitini loyihalashtirish masalasiga murojaat qilganimiz aynan shu bilan bog‘liq. Inklyuziv maktabgacha ta’lim tashkiloti jarayoniga chuqurroq sho‘ng‘ish, bir tomondan, ko‘r qirrali kasbiy tayyorgarlik bo‘lsa, ikkinchi tomondan, maktabgacha ta’lim yo‘nalishi talabasiga aniq bir ta’lim muassasasida mavjud muammoni yechishga qaratilgan shaxsiy ilmiy-ta’limiy metaloyihasini yaratish, sinovdan o‘tkazish hamda o‘qitish jarayoniga joriy qilish imkonini beradi va boshqa inklyuziv maktabgacha ta’lim tashkilotlari uchun mazkur muammoning modeli yechimi sifatida namoyon bo‘ladi. Ta’lim jarayonining subyektlari faoliyati jarayonida bizning modelimiz doirasida asosan o‘qitishning faol metodlari va texnologiyalaridan foydalangan holda, shu jumladan, loyihalar metodi, keys-metodi [5], o‘zaro interfaol hamkorlik, individual ta’lim, hamkorlikda o‘qitish texnologiyalariga yo‘naltirilgan.

Modelning *refleksiv-baholovchi komponenti* ta’lim inklyuziyasining aniq vazifalarini bajarishga qaratilgan ilmiy-ta’limiy metaloyihalar ko‘rinishida taqdim etilgan ta’lim faoliyati natijalari bahosini o‘z ichiga oladi. Ilmiy-ta’limiy metaloyiha ma’lum bir ta’lim muassasasi ehtiyojlariga qaratilgan yoki ijtimoiy yo‘naltirilgan bo‘lishi mumkin. Bunday ilmiy-ta’limiy metaloyihalar misoli tadqiqotimizning quyidagi paragraflarida havola etiladi.

Ularning amalga oshishi inklyuziv ta’lim tashkilotlarining aniq muammolarini yechish borasidagi ehtiyojlarini maksimal darajada qanoatlantirish imkonini beradi. Shuning uchun ham bizning modelimiz pedagoglarni inklyuziv mashg‘ulotlarni loyihalashtirishga yo‘naltirilgan.

Tahlil va natijalar. Modellarni tasvirlash orqali taqdim etilgan ilmiy izlanishlar jarayoni va natijalarini yoritishga harakat qildik va biz tomonimizdan ishlab chiqilgan modelning faqatgina “sxematik” nazariy yoritib berdik. Tajriba – sinov jarayonida amaliy jihatdan nazaryalar amalyotda qo‘llandi. Tajriba-sinov ishlari Toshkent davlat pedagogika universiteti, Qo‘qon davlat pedagogika instituti va Navoiy davlat

pedagogika institutida olib borildi. Nazorat guruhida mashg‘ulotlar an’anaviy metodika bo‘yicha olib borilgan bo‘lsa, tajriba guruhida biz tomonimizdan ishlab chiqilgan mezonlar va yo‘naltirilgan metodika asosida tashkil etildi. Bo‘lajak tarbiyachilarni kasbiy faoliyatga tayyorlash jarayonida inklyuziv ta’lim texnologiyalari, axborot texnologiyalar va axborot ta’lim muhitlari asosida o‘quv-tarbiya jarayonlarini tashkil etishga oid metodik tavsiyalar ishlab chiqish, inklyuziv ta’lim muhitida mashg‘ulot ishlanmalari, turli loyihalash faoliyatini amalga oshirishga oid ko‘rsatmalar berib borildi.

Inklyuziv ta’lim muhitida bo‘lajak tarbiyachilarni kasbiy tayyorlash bo‘yicha ta’limiy-pedagogik dasturning samaradorligini baholash maqsadida so‘rovnomalar axborot texnologiyalar asosida onlayn ta’lim muhitlarida o‘tkazildi. Pedagogik tajriba-sinov natijalari umumiy statistik tahlil qilindi. inklyuziv ta’lim muhitida bo‘lajak tarbiyachilarning kasbiy tayyorgarligi mezonlari aniqlab olindi (1-jadval). Uning geometrik tasviri 3-rasmda keltirilgan.


1-jadval

Inklyuziv ta’lim muhitida bo‘lajak tarbiyachilarning kasbiy tayyorgarligini takomillashtirishga yo‘naltirilgan tajriba-sinov ishlarining samaradorlik darajasi

T.r	Savolnomalar orqali korreksion ko‘rsatkichlarni baholash	Samaradorlik darajalari (sonlarda)					
		Nazorat guruhi (318)			Tajriba guruhi (317)		
		Yuqori	O‘rta	Past	Yuqori	O‘rta	Past
1.	Bo‘lajak pedagogning bola ta’lim-tarbiyasi uchun mas’uliyatni his etishi	98	130	90	166	122	28
2.	Alohida ehtiyojli bola rivojlanishi bosqichlari va uning yoshga oid, individual	102	131	85	163	124	30

	xususiyatlarini bilishi						
3.	Samarali inklyuziv ta’lim metod va usullaridan xabardorligi	99	130	89	163	124	30
4.	Alohida ta’lim ehtiyojlari bo’lgan bolalar bilan ishlashda bag’rikengligi	96	131	91	161	125	31
5.	Pedagogik-psixologik bilim darajasi	103	129	83	163	124	31
6.	Bo’lajak tarbiyachining kasbiy faoliyatga qiziqish darajasi	99	132	87	162	123	32
7.	Alohida ta’lim ehtiyojlari bo’lgan bolaning o’ziga xos xususiyatlaridan xabardorligi	101	133	84	161	125	32
8.	Bolaning ehtiyojlari qondirilishi	98	130	90	160	124	33
9.	Bola uchun xavfsiz muhitni ta’minlay olishi	104	128	82	159	126	32
10.	Tarbiyachi va bola munosabatlarining barqarorligi	103	132	83	160	124	33
11.	Bo’lajak tarbiyachining kommunikativ kompetentligi	98	130	90	162	123	32
12.	O’zini-o’zi nazorat qila olishi	97	134	87	164	126	27
13.	Inklyuziv ta’lim tamoyillarini qo’llay olishi	100	133	85	163	123	31

14.	Bo‘lajak tarbiyachining inklyuziv muhitda ijtimoiy moslashganligi	102	129	87	160	125	32
J a m i:		1400	1834	1218	2268	1736	434



O' r t a c h a:	100	131	87	162	124	31
------------------------	-----	-----	----	-----	-----	----

3-rasm. Tajriba-sinov o‘tkazilgan OTMlari bo‘yicha tajriba yakunidagi umumiy natijalar diagrammasi

Xulosa va takliflar. Shunday qilib, alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarni maktabgacha ta’lim tashkilotlariga ijtimoiy moslashtirish individual-metodik dasturi asosida tashkil etilgan faoliyat inklyuziv ta’lim muhitida bo‘lajak tarbiyachilarning inklyuziv kompetentligini rivojlantirishga yo‘naltirilgan pedagogik-psixologik, diagnostik, ijtimoiy-korreksion faoliyatni takomillashtirish, inklyuziv-pedagogik kompetentlikni shakllantirish, qadriyatli, shaxsga yo‘naltirilgan yondashuvlar tizimini amalga oshirishga xizmat qiladi. Shuning uchun Inklyuziv ta’lim muhitida bo‘lajak

tarbiyachilarni kasbiy faoliyatga tayyorlashda axborot texnologiya vositlaridan foydalanish yuqori samaraga olib keladi.

Adabiyotlar.

1. Kayumova D.N. Inklyuziv ta’lim: tahliliy yondashuv va zamonaviy qarashlar. // “Uzluksiz ta’lim” ilmiy-uslubiy jurnal. 2020. Maxsus son. – B.54-58.

2. Алдакушева Е.С. Образовательная система для детей с ограниченными возможностями здоровья: от изоляции к инклюзии [Электронный ресурс]. URL: http://www.rusnauka.com/6_PNI_2014-/Pedagogica/6_160949.doc.htm.

3. Корнеев Д.Н., Корнеева Н.Ю., Саламатов А.А. Инклюзивная компетентность педагога профессионального обучения: от идеи к десеминации педагогического опыта // Современные наукоемкие технологии. 2014.-№ 5.–С. 116-120

4. Кузмина О.С. Подготовка педагогов к работе в условиях инклюзивного образования //дис. ... канд. пед. наук. Омск, 2015.- 319 с.

5. Маслиева С.Н. Компетентностная модел подготовки будущего педагога в работе условиях инклюзивного образования // Научный журнал «Апробация». 2015.-№ 7 (34).–С. 102-108.

6. Никитина М.И., Баулина М.Б. Формирование профессиональной компетенции педагогов инклюзивного образования // Вестник Ленинградского государственного университета им. А.С.Пушкина. 2016.- № 4-2.–с. 229-236.

7. Игнатев А.Э. Подготовка педагогов к работе с детьми с проблемами в физическом и умственном развитии в условиях инклюзивного образования // Вестник Казанского государственного университета культуры и искусств. 2014.- № 4-2.–С. 58-60.

8. Кузмичева Т.В. Интеграции общedefектологических и общепедагогических подходов к практике подготовки балалавров направлений подготовки 44.03.01 “Педагогическое образование” и 44.03.03 “Специальное (defектологическое) образование” // Проблемы современного педагогического образования. 2017. -№ 54 (6) . С. 127-132.

9. Черкасова С.А. Психолого-педагогическая готовность будущих педагогов-психологов к работе в условиях инклюзивного образования // Научные ведомости Белгородского университета. Серия: Гуманитарные науки. 2010. -Т. 8. -№ 24 (95).–С. 345-331

10. Возняк И.В. Формирование готовности педагогов к инклюзивному образованию детей в системе повышения квалификации // дис. ... канд. пед. наук. -Белгород. 2017.-225 с.

11. Гонеев А.Д. Теоретические основы подготовки учителя к коррекционно-педагогической деятельности с подростками //дис. ... докт. пед. наук.- Курск. 2001. -485 с.

12. Самарсева Э.Г. Формирование профессиональной готовности будущих педагогов к инклюзивному образованию детей дошкольного возраста // дис. ... канд. пед. наук.- Орел. 2012. -259 с.

13. Тимохина Т.В. Организационно-технологическое и методическое обеспечение профессиональной подготовки специалистов к работе в инклюзивной образовательной среде // Ученые записки Орловского государственного университета. 2015. -№ 6(69).– С. 270-273.

14. Хитрюк В.В. Формирование инклюзивной готовности будущих педагогов в условиях высшего образования // дисс. ... д-ра пед. наук. – Калининград, 2016. – 390 с.

15. Кочетова Н.Н., Маслиева С.Н. Личностная модель подготовки будущего педагога в работе в условиях инклюзивного образования // Образование. Наука. Инновации. 2015.- № 1(39). С. 49-58.

16. Qayumova D.N. Bo‘lajak tarbiyachilarni inklyuziv ta’lim sharoitlarida ishlashga kasbiy tayyorlashning tayanch konseptlari // Toshkent davlat pedagogika universiteti ilmiy axborotlari. 2020. 10-son. –В.126-131.